



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



SPAIN CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND
INNOVATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi[®] digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION: a collection scientific works of the International scientific conference – Madrid, Spain, 2025, Issue 5.

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION**». Which took place in Spain, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**ABDURAZZOQ GURNA ROMANLARIDA RUHIY HOLATLARNI
IFODALASHDA TIL VA USLUB VOSITALARINING O'RNI****Saydamatova Dilafrō'z Xamidullo qizi**

NamDU 2-boshqich tayanch doktoranti

Email:dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Tel:+998908501122

Annotatsiya. Maqolada Abdurazzoq Gurna ijodida, xususan "*By the Sea*" romanida ruhiy holatlarni ifodalashda til va uslub vositalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot tilni faqat mazmun tashuvchi vosita sifatida emas, balki travma, identitet inqirozi, begonalik va parchalangan xotira jarayonlarini modellashtiruvchi psixopoetik tizim sifatida ko'rib chiqadi. Saleh obrazining ichki nutqi, sintaktik uzilishlar, epistemik noaniqlik, jimlikning muloqot strategiyasiga aylanishi, shuningdek, dengiz metaforasi va intertekstual ishoralarining ruhiy funksiyasi alohida tahlil etiladi. Cathy Caruthning travma nazariyasi, shuningdek Okungu, Soleymanzadeh, Allahyari va boshqa tadqiqotchilar qarashlari asosida Gurna poetikasida "fragmentar xotira", "kechikkan idrok" va "fluid identitet" tushunchalarining lingvopoetik talqini yoritiladi. Xulosa o'rnida "*By the Sea*" postmustamlaka ruhiyati va til-ruhiyat munosabatini o'zida mujassam etgan muhim badiiy-nazariy model ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Abdurazzoq Gurna, "*By the Sea*", postmustamlaka adabiyoti, ruhiy travma, lingvopoetika, metafora, jimlik, intertekstualik, identitet, fragmentar xotira.

Annotation . The article examines the role of language and stylistic devices in representing psychological states in Abdurazzoq Gurna's novel "*By the Sea*". Rather than treating language as a neutral vehicle of meaning, the study argues that Gurna turns linguistic structures themselves into a site where trauma, exile, estrangement and fragmented memory are enacted. Special attention is given to Saleh's interior monologue, syntactic breaks, epistemic uncertainty, and the transformation of silence into a deliberate communicative strategy. The sea metaphor and the dense intertextual network are analysed as psychopoetic models that map the dynamics of postcolonial subjectivity. Drawing on Cathy Caruth's trauma theory as well as the insights of Okungu, Soleymanzadeh, Allahyari and others, the article explores how notions such as "belated understanding", "fragmented memory" and "fluid identity" are realised at the level of narrative language. It concludes that "*By the Sea*" functions as a significant postcolonial literary model in which language becomes a medium of psychological diagnosis and reconstruction.

Keywords: Abdurazzoq Gurna, "*By the Sea*", postcolonial literature, trauma, psychonarration, metaphor, silence, intertextuality, identity, fragmented memory.

Аннотация В статье анализируется роль языка и стилистических средств в репрезентации психических состояний в романе Абдураззока Гурны *“By the Sea”*. Показано, что язык у писателя выступает не только как средство передачи содержания, но и как психопоэтический механизм, в котором разыгрываются травма, чувство изгнанничества, отчуждение и фрагментированная память. Особое внимание уделяется внутреннему монологу Салеха, синтаксическим разрывам, эпистемологической неопределённости, а также превращению молчания в стратегию психологической защиты и коммуникации. Образ моря и интертекстуальные отсылки рассматриваются как модель постколониальной субъективности и динамики идентичности. Опираясь на теорию травмы К. Карут, а также исследования Окунгу, Солеймандзаде, Аллахяри и других, статья раскрывает, каким образом понятия «запоздалое понимание», «фрагментированная память» и «fluid identity» реализуются на уровне повествовательного языка. Делается вывод, что *“By the Sea”* представляет собой важный художественно-теоретический пример, в котором язык становится формой психологической диагностики и восстановления субъекта.

Ключевые слова: Абдураззок Гурна, *“By the Sea”*, постколониальная литература, психическая травма, лингвопоэтика, метафора, молчание, интертекстуальность, идентичность, фрагментированная память.

Kirish . Inson ruhiyati badiiy adabiyotda tasvirlanadigan eng murakkab fenomenlardan biri hisoblanib kelmoqda. Adabiyotshunoslikning zamonaviy yoʻnalishlari ruhiy kechinmalarni til orqali ifodalashning ikki darajasini farqlaydi. Ularning birinchisi semantik-diskursiv daraja - yaʼni ruhiy holatni toʻgʻridan-toʻgʻri nutq orqali ifodalash; ikkinchisi esa lingvopoetik daraja - yaʼni tilning oʻzi ruhiy holatga aylanadigan jarayon.

Abdurazzoq Gurna ijodi aynan ikkinchi darajaga mansub boʻlib, unda ruhiy iztirob, ambivalensiya, qoʻrquv, begonalik, oʻzlikning parchalanganligi kabi holatlar tilning ichki strukturalarida ifodalanadi. Adabiyotshunos A.Okungu taʼkidlaganidek:

“Gurnah does not describe psychological rupture; he writes it into the language” (p.41).

Bu fikr Gurna poetik tizimining eng asosiy xususiyatidan biri hisoblanuvchi ruhiy jarayonlarning tilga koʻchirilishini aniq ifodalaydi.

Asosiy qism.

“By the Sea” romanida qahramon ongidagi ichki dialoglar shaklan sodda koʻrinib-da, aslida semantik jihatdan murakkab, koʻp qatlamli . Salehning ichki nutqida koʻpincha vaqt birligi buziladi, gaplar qisqa, sintaktik jihatdan sakragan holda davom etadi. Bu tilning ichki tuzilishidagi “uzilish” qahramon ruhiyatining uzilishga uchraganligi bilan bevosita bogʻliq.

Roman boshida Salehning o'z-o'zini kuzatish jarayoni muallif tomonidan shunday ifodalanadi:

"It is difficult to know with precision how things became as they have..."

Bu jumla epistemik noaniqlik formulasidir ya'ni qahramon nima sodir bo'lganini biladi, lekin uni to'g'ri tushuntira olmaydi. Tilning noaniqligi ruhiy jarohatning lingvistik shakliga aylanadi. Cathy Caruth travma nazariyasida shunday inson holatini *"belated understanding"* deb ataydi - *ya'ni voqea vaqtida idrok qilinmaydi, balki keyinchalik qayta eslash jarayonida parchalanib chiqadi.*

Shu sabab romanda ichki monologlar mantiqan uzilgan, lekin ruhiy jihatdan izchil - ular qahramon ongining ichki ritmiga mos keladi.

Gurna romanida jimlik oddiy nutqning yo'qligi emas, balki ma'no yuklangan psixologik strategiyadir. Aeroport sahnasidagi mashhur epizodda Saleh shunday deydi:

"I did not say anything. Silence seemed safer than the wrong word." (p. 14) Bu yerda jimlik orqali yozuvchi o'zini himoya qilish, davlat nazoratidan qo'rquv, tilga bo'lgan ishonchsizlik, ruhiy iztirobning ichki ko'rinishi, travmadan keyingi nutqning to'xtab qolishi kabi ko'plab ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Okungu fikricha: *"Silence in Gurnah is a language of survival, a form of psychological defense."* Demak, Gurna uchun jimlik - tilning alternativ shakli, cho'kib ketgan identitetning so'nggi ishorasi. Roman davomida xotira epizodlari fragmentlar shaklida beriladi. Salehning o'tganiga qaytishi hech qachon to'liq hikoya bo'lib kelmaydi - u har safar uzilgan, aralashgan, qayta tiklanmagan shaklda yuzaga chiqadi. Masalan: *"Little pieces return, but they do not make a whole."*

Bu - travma xotirasining klassik lingvistik ko'rinishi. Caruth buni *"fragmented memory"* deya ta'riflaydi - ruhiyat biror voqeani to'liq qabul qila olmaganida xotira bo'laklarga bo'linadi. Salehning har bir eslashi ham shunday - *"butun hikoya"* yo'q, faqat bo'laklar bor. Ilmiy adabiyotlar bu holatni Gurnaning til tanlovidagi asosiy strategiya sifatida ko'radi. Soleymanzadeh fikricha: *"Memory in Gurnah is never linear; it is reconstructed through linguistic gaps and emotional absences."* Bu bo'shliqlar - lingvistik bo'shliq emas, balki psixologik bo'shliqning tilga ko'chgan shaklidir.

Mazkur Tadqiqotimiz jarayonida bevosita metaforalarga ham e'tibor qaratdik. Muallif o'z asarlarida badiiy tasvirni xalqchil va ommabop bo'lishi uchun metaforik tasvirlardan samarali va o'rinli foydalangan. Uning romanlarida asosan ob-havo, tabiat manzalari, mevalar, hayvon va buyum nomlari bilan bog'liq metaforalar ishlatilgan.

Gurna romanlarida qo'llanilgan metaforalarning tahliliga o'tishdan odin mazkur badiiy tasvir vositasi haqida to'xtalib, bu boradagi tilshunos hamda

adabiyotshunos olimlarning fikrlari va ta'riflarini keltirib o'tmoqchimiz.

Metafora atamasi antik davr faylasufi Aristotel nomi bilan bog'liq. Aristotelning "Poetika" asarida dastlab, metafora – biror narsaga boshqasiga tegishli bo'lgan nomni qo'llash" deb ta'riflaydi. Aristotelning fikriga ko'ra, "ismni jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoki turdan turga, yoki o'xshashlik bilan qo'llash mumkin".

Metafora (*yunoncha. metaphora – ko'chrish*) – ma'no ko'chishning keng tarqalgan turlaridan biri, narsa hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslanuvchi ko'chim turi. Metafora mohiyatan yashirin o'xshatish bo'lib, unda o'xshatilayotgan narsa tilga olinmagani holda uning ma'nosini o'xshatayotgan narsa (ya'ni, uni ifodalayotgan so'z) bildiradi. Bu o'rinda o'xshatilayotgan narsa-hodisalarining aynan o'xshashligi talab qilinmaydi, balki ikki narsa-hodisaga xos belgilardan birortasi asos uchun olinadi.

Metaforalarni kundalik hayotimizda hamda badiiy asarlarda ko'plab uchratamiz va nutqimizda doim qo'llaymiz. Odatda metaforalar tilimizni va matnlarni bezash yoki nimanidir tushuntirish uchun ishlatiladi yoki shunchaki gapirganimizda biz unga o'rganib qolganmiz va bu metaforalar orqali biz boshqalarga qanday munosabatda bo'lishimiz mumkinligini tushunamiz. Metaforalarning mohiyati bir narsani butunlay boshqacha ifodalar orqali tushunish va boshdan kechirishdir. Yorqin tasvirlar metafora yordamida yaratiladi va metafora aslida yozilgan narsalarni mazmunli va tushunarli qilishga yordam beradi.

Gurra ruhiy kechinmalarni ko'pincha metaforalar orqali ko'rsatadi. Eng asosiy metaforalardan biri - dengiz. Roman boshidan oxirigacha dengiz timsoli qahramon ruhiyatining o'zgaruvchanligini bildiradi. Salehning quyidagi jumlasiga bunga yorqin misol:

"I felt as if the tide had taken me without warning."

Asardagi mazkur metafora orqali yozuvchi ruhiy holatlarni ifodalashni maqsad qilib oladi va bu metaforalar tag zahirida boshqaruvni yo'qotish, o'zlikning oqib ketishi, "ichki hududlar"ning qulashi, travmaning to'satdan ustidan kelishi, psixologik beqarorlik kabilar ifodalanadi.

Allahyari bu obrazni keng ijtimoiy-kulturologik kontekstga joylashtirib shunday yozadi: *"The sea in Gurnah's fiction is a psychological border: fluid, unstable, and constantly reshaping the individual's sense of self."* Demak, metafora - nafaqat badiiy vosita, balki psixologik jarayonning ramziy tafakkur shakli.

Roman **yulduzsimon intertekstual tuzilishga ega bo'lib**, unda Sharqiy Afrika savdo tarixi, arab manbalari, mustamlakachilik arxivlari, diniy matnlar hamda qadimiy safar hikoyalari o'zaro murakkab tarzda tutashadi. Ushbu intertekstlar bir tomondan qahramonning madaniy o'zligini eslatib, uning tarixiy ildizlari, etnik-madaniy xotirasi va avlodlar tajribasini jonlantiradi. Biroq, ayni vaqtda ular qahramon ruhiyatida qayta jarohatlanish

jarayonini ham yuzaga keltiradi: mustamlaka merosi, savdo va qulchilik izlari, diniy ta'birlar va eski safar rivoyatlari qahramon ongida chizilgan tarixiy iztiroblar bilan to'qnashadi. Natijada intertekstlar shaxsning o'zligini anglash jarayonida ikki tomonlama - **eslatish va og'riq keltirish** funksiyasini bajaradi, qahramonning ichki ruhiy kurashini yanada chuqurlashtiradi. Intertekstual ishoralarning ruhiy funksiyasi haqidagi ilmiy tahlilda shunday deyiladi:

"Intertextuality in By the Sea is a psychological map, marking the refugee's dislocated memories." Ya'ni intertekst - eslab qolishning ruhiy xaritasi, identitet bo'lagini tiklash jarayoni.

Tadqiqotimiz davomida postmustamlaka adabiyotida ruhiy holatlarni til va uslub vositalari orqali ifodalash masalasi eng murakkab poetik qatlamlardan biri bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Chunki bunday adabiyotlarda shaxs ruhiyati shunchaki individual kechinmalar emas, balki tarixiy zo'ravonlik, madaniy siljish, migratsiya, mustamlaka merosi va identitet inqirozining murakkab kesishuvlarida shakllanadi. Abdurazzoq Gurnaning *"By the Sea"* romani ushbu jarayonning eng yorqin badiiy namunasidir. Asarda shaxs ruhiyatining ichki dinamikasi, nutqning parchalanganligi, xotira fragmentlari, jimlikning semantik vazifalari, metaforik tizim va intertekstual signallar orqali til darajasida qayta yaratiladi.

Til bunday matnlarda mazmunni tashuvchi vosita emas - balki ruhiy holatning o'ziga aylanadi. Shu bois tadqiqotchilar Gurna poetikasidagi nutq shakllarini faqat badiiy uslub emas, balki "psixologik diagnostika" sifatida ham talqin qilishadi.

Roman boshidan boshlab Salehning ichki nutqi sintaktik jihatdan tarqoq, noaniq, qisqa jumladan tashkil topgan. Bu Gurnaning ong oqimini (stream of consciousness) to'liq berish usuli emas - balki travma natijasida uzilgan fikrlash mexanizmining til ko'rinishidir. Asarda qahramon o'z o'tmishini eslar ekan, uning nutqida ko'p o'rinlarda epistemik noaniqlik ("bilmayman", "aniq emas", "yodimda yo'q") uchraydi.

Caruthning travma nazariyasi aynan shu holatni *"kechikib qaytadigan xotira"*, ya'ni *belated cognition* sifatida izohlaydi. Travmatik voqea to'liq idrok etilmaydi, balki keyinroq bo'lak-bo'lak shaklda yuzaga chiqadi. Gurnadagi parchalangan nutq - shu jarayonning badiiy ko'rinishi.

"By the Sea" romanida jimlik oddiy pauza emas, balki mustaqil til vositasidir. Saleh aeroportdagi ilk sahnalarda aynan sukutni tanlaydi - bu uning qo'rquvi yoki til bilmasligidan emas, balki himoyalaniish strategiyasidan dalolat beradi. Okungu jimlikni Gurna ijodida *"insonning o'z qadrini saqlab qolish vositasi"* deb ta'riflaydi. Migratsiya jarayonida til ko'pincha hukm qiluvchi tizim qo'lida vositaga aylangan paytda, jimlik - kuchsizning yagona "quroli".

Sukut, ayni paytda, subyektning ichki tarangligini bildiradi: u gapirishdan qo'rqadi, lekin sukut qilmaslikdan ham qo'rqadi. Bu ambivalent holat til vositasiga aylanib ketadi.

Gurnaning ijodini o'rganib kelayapkan ko'plab olimlar, xususan, IJPSAT (2024) maqola mualliflari roman intertekstual qatlam bilan to'yinganini ta'kidlashadi. Intertekstlar - arab sayyohlari, Sharqiy Afrika savdo tarixchilari, kolonial arxivlar, diniy manbalar - qahramon ruhiyatida **madaniy tayanch** vazifasini bajaradi¹⁵.

Gurna poetikasida intertekstlar faqatgina madaniy xotirani faollashtiribgina qolmay, balki **travmatik yodning qayta uyg'onish mexanizmi** sifatida ham ishlaydi. Aynan shu jihat romanlarda ichki ruhiy keskinlikni kuchaytiradi. Tarixiy manbalar, mustamlakachilik yozuvlari yoki qadimiy arab-svahiliy rivoyatlar qahramon ongida o'zining shaxsiy ajralish, quvg'in va yo'qotish tajribalarini esga soluvchi **psixologik trigger** vazifasini bajaradi. Natijada intertekstual eslatmalar qahramon ruhiyatida jarohatli xotiralarni jonlantirib, uning ichki og'riq darajasini yanada oshiradi. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, intertekstlar qahramonni:

1. Yodning tirtiqlangan, bitmay qolgan joylariga qaytaradi: ya'ni Gurna romanlarida intertekstlar ko'pincha qahramon ongida allaqachon bostirilgan yoki unutishga urinilgan xotira qatlamlarini qayta yuzaga chiqaradi. Bu jarayon Freyd ta'riflagan "qaytuvchi repressiya" mexanizmini eslatadi: subyekt unutgan deb o'ylagan og'riqli tajriba matn ichidagi tarixiy, diniy yoki madaniy manba bilan to'qnashganda yana paydo bo'ladi. Masalan, Sharqiy Afrika savdo karvonlari haqidagi rivoyatlar yoki mustamlakachilik idoralari qaydlaridan olingan satrlar qahramonga uning oilasidan majburan ajratilishi, qarzdorlik sababli rehani sifatidagi mavqei, yoki voyaga yetish jarayonida boshdan kechirgan ekspluatatsiya hodisalarini eslatadi. Intertekst shuning uchun oddiy matnlararo havola emas, balki ruhiy jarohatning keyinchalik ham tinimsiz takrorlanishiga sabab bo'luvchi psixologik ochilish nuqtasidir.

2. Uni o'tmishdagi keskin va og'riqli nuqtalar bilan yuzlashtiradi: Intertekstion qatlamning navbatdagi funksiyasi - qahramonni o'tmishdagi eng keskin, eng og'riqli nuqtalar bilan yuzlashtirishdir. Gurna poetikasida bu qaytish jarayoni ko'proq majburiy xotirlash shaklida kechadi: qahramon o'tmishni xohlamaydi, biroq matnlararo ishora uni baribir qaytaradi. Masalan, mustamlaka administratsiyasining arxiv hujjatlari yoki diniy matnlar tarkibidagi qismat, sinov va taqdirga oid ma'naviy izohlar qahramonda o'z hayotidagi beqarorlik, himoyasizlik, yo'qotish va ong ostidagi qo'rquvni yana jonlantiradi. Natijada subyekt hozirgi zamondagi identitetini yaratishga urinayotgan bo'lsa-da, intertekst uni o'tmish foyuna qaytarib, tarixiy tajribalar bilan yana to'qnashishga majbur qiladi. Bu jarayon postkolonial shaxsning "chala bitgan o'tmish" holatini yoritadi.

3. Subyektning identitetini qayta qurishga, parchalangan o'zlikni qayta

tiklashga majbur qiladi: dengiz - kelib-ketish, yo'qotish va ajralishning tarixiy - ruhiy kodlari Zanzibar tarixi Hind okeani bilan chambarchas bog'liq. Dengiz orqali:

- savdo karvonlari,
- migratsiya yo'llari,
- mustamlaka qo'shinlari,
- quvg'inlar,
- qochqinlar,
- metaforik "o'tishlar" kechgan.

Allahyari keltirganidek, Gurnaning qahramonlari "chegara tajribasini" suv orqali anglashadi, chunki Zanzibar odamlari uchun dengiz - tarixiy o'zlikning uzviy qismidir.

Goddard va Goddardning ilmiy maqolasida esa "sea of dislocation" iborasidan foydalaniladi: ya'ni Afrikadan Yevropaga bo'lgan badiiy safar yo'qotishning ham, o'zlikning qayta shakllanishining ham metaforasiga aylanadi.

Bu talqinlar Saleh Omar timsolida aniq ko'rinadi: u vatandan ketadi, lekin chegaraga kelganida hamon "dengizning ichida" - dislokatsiya holatida qoladi. Dengiz shunday qilib yo'qotishning makoniy emas, ruhiy timsoliga aylanadi.

Dengiz - o'zlikning erishi va identitetning suyuqlanishi

Gurnaning qahramonlarida identitet hech qachon qat'iy emas. Latif ham, Saleh ham doimiy o'zlik holatida emas, balki suyuqlik va tebranish jarayonida.

Ilmiy adabiyotda bu holat postkolonial identitetning "fluidity" - suyuqlik metaforasi orqali tushuntiriladi. Helffning "Illegal Diasporas and African Refugees in Gurnah's By the Sea" maqolasida dengizning aynan shu jihatiga urg'u beriladi: qahramonlar identiteti suv kabi shaklini o'zgartiradi, kontekstga qarab cho'kadi yoki ko'tariladi.

Soleymanzadeh ham Gurnada identitet jarayoni "qat'iy shakllangan emas, balki doimiy o'zgarib boruvchi ruhiy holat" ekanini ta'kidlaydi.

Shu sabab dengiz ramzi o'zlikning erishi, qayta shakllanishi va ruhiy tasavvurlarning suyuqlanishi tamoyillarini mujassam etadi.

Dengiz - qo'rquv va erkinlikning birlashgan makoni

Dengiz metaforasi paradoksal:

- bir tomondan xavf, cho'kish, yo'qolish qo'rquvi,
- ikkinchi tomondan yangi makon, erkinlik, harakat imkoniyati.

Kumavie (2021) "By the Sea"dagi aeroport sahnasi haqida yozar ekan, qahramonning chegaradagi qo'rquvini "oceanic terror" deb ataydi - bu qo'rquv dengizdan chiqib, yangi "quruqlik" chegarasida davom etadi.



Goddard esa dengizni “sea of Becoming” - ya’ni yaratilish, qayta tug’ilish, yangi hayotning boshlanishi sifatida sharhlaydi.

Demak, dengiz - qo’rquv va erkinlikning birlashmasi, liminal makon, subyektning “o’tish holati” boshidan kechadigan psixopoetik zona.

Dengiz - ruhiy jarayonlarning intellektual modeli: travma, eslash va tiklanish

Dengiz “By the Sea” romanida travma eslashining modeliga aylanadi. To’lqinlar qanday qaytib kelaversa, travmatik xotiralar ham qayta-qayta yuzaga chiqadi.

Goddardning “dialectics of recuperation” haqidagi fikrlarida Gurna “travma va tiklanishning doimiy oqim jarayonini” aynan dengiz obrazi orqali quradi, deya izohlanadi.

Xulosa.

Abdurazzoq Gurnaning *By the Sea* romanini til va uslub vositalari nuqtai nazaridan tahlil qilish natijalari shuni ko’rsatadiki, yozuvchi ruhiy holatlarni tasvirlashda an’anaviy psixologik bayon usullaridan ko’ra, tilning ichki strukturasini faol badiiy mexanizm sifatida ishga soladi. Gurnada ruhiy jarayonlar til orqali nafaqat tasvirlanadi, balki tilning o’zi shaxsning ruhiy parchalanishi, ambivalensiyasi, identitet beqarorligi va travmatik xotiraning bo’laklarga ajralgan tabiati bilan uyg’unlashgan holda badiiy shaklga aylanadi. Okungu, Caruth, Soleymanzadeh, Allahyari, Goddard kabi tadqiqotchilarning nazariy qarashlari Gurna poetikasining aynan lingvopsixologik asosga ega ekanini tasdiqlaydi.

Roman qahramoni Salehning nutqidagi sintaktik uzilishlar, semantik bo’shliqlar, vaqt birligining buzilishi, epistemik noaniqlik kabi til birliklari ruhiy jarohatning lingvistik ekvivalentiga aylanadi. Caruth ta’kidlagan “belated cognition” va “fragmented memory” tushunchalari orqali Gurnaning tilidan joy olgan parchalangan xotira mexanizmi roman strukturasini belgilaydi. Salehning jimligi ham oddiy nutqning inkori emas, balki psixologik mudofaa mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi; jimlik – Gurna poetikasida alternativ til, o’zlikni saqlash strategiyasi, tizimga nisbatan passiv qarshilik shaklidir.

Yana bir muhim jihat – metaforik sistemaning psixopoetik vazifasidir. Dengiz obrazi ruhiy o’zgarish, identitetning erishi, dislokatsiya va qayta tiklanish jarayonlarini mujassam etgan markaziy psixologik-metaforik makonga aylanadi. “Oceanic terror”, “sea of dislocation”, “sea of becoming” kabi talqinlar dengizni travma va tiklanishning intellektual modeli sifatida ko’rsatadi. Shu jihatdan, metafora Gurna uchun tasvir vositasi emas, balki shaxs ruhiyatining semantik kartasini yaratadigan badiiy mexanizm hisoblanadi.

Roman intertekstual struktura bilan boyib, arab-svahiliy tarixiy manbalari, kolonial arxivlar, diniy matnlar va Sharqiy Afrika madaniy xotirasini qahramon ruhiyatiga ko’chiradi. Intertekstlar qahramon

o'tmishining jarohatli qatlamlarini uyg'otuvchi psixologik trigger sifatida ishlaydi; ular subyektni bir vaqtning o'zida ham xotiraga qaytaradi, ham og'riqli joylarni eslatadi, ham identitetni qayta qurishga majbur qiladi. Bu jarayon Gurnaning postmustamlaka yod, travma va identitet poetikasiga xos bo'lgan ikki tomonlama (eslash–og'riq, yo'qotish–tiklanish) dinamikani yuzaga chiqaradi.

Umuman olganda, *By the Sea* romanida til oddiy ma'nolarni yetkazuvchi vosita emas, balki ruhiy jarayonlarning bevosita modellashtiruvchisi, travmatik xotiraning lingvistik shakli, subyektning ichki kurashi va o'zlikni tiklash jarayonining semantik maydoniga aylanadi. Gurnaning poetik mahorati shundaki, u inson ruhiyatidagi eng murakkab psixologik jarayonlarni sintaksis, metafora, jimlik, intertekst va lingvopoetik strukturalar orqali badiiy til darajasida yaratadi. Shuning uchun ham Gurnaning ijodi postkolonial adabiyotda til–ruhiyat munosabatining eng o'tkir va ilmiy e'tirof etilgan badiiy namunalaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Okungu, *Reading Abdulrazak Gurnah*. - p. 41.
2. Gurnah A. *By the Sea*. - London: Bloomsbury Publishing, 2001.
3. Gurnah A. *By the Sea*. — London: Bloomsbury Publishing, 2001.- p.11.
4. Caruth C. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. - Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. p -8.
5. Gurna, *By the Sea*, p. 103.
6. Gurna, *By the Sea*, p. 32.
7. Caruth C. *Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History*. - Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996. p- 4.
8. Soleymanzadeh, p. 52.
9. Аристотель. Поэтика. / Пер. М. Л. Гаспарова // Аристотель. Собр. соч. в 4 томах, Т. 4. Мысль. - Москва: 1983. -С. 96.
10. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr. - Toshkent:. 201. - B. 71.
11. Lakoff G, Johnson M. *Metaphors We Live By*. The University of Chicago. -Chicago: 2003. - P. 6.
12. Gurna, *By the Sea*, p. 43.
13. Allahyari, *The Global Refugee: Oceanic Border Thinking in Gurnah's By the Sea*.- P.5.
14. *Intertextuality in "By the Sea"*, IJPSAT, 2024.- P.3.